

BUGUN TOSHLOQ TUMANIDA "KIBERMADANIYATNI YUKSALTIRISH OYLIGI" DOIRASIDA HUQUQIY-TARG'IBOT TADBIRI BO'LIB O'TDI

Toshloq tumani hokimligi majlislar zalida "Kibermadaniyatni yuksaltirish oyligi" (Cyber-month - Ferghana) doirasida kompleks targ'ibot-tashviqot tadbirlari to'g'risida keng jamoatchilik vakillariga ma'lumot berish maqsadida seminar bo'lib o'tdi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 fevraldagi PF-37-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan bu yilgi Davlat dasturida ushbu yo'nalish bo'yicha alohida topshiriq, ko'rsatmalar berildi, ushbu farmondagi topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida viloyat hokimining 2024 yil 11 iyundagi qarorida joriy yilning 1 iyulidan 31 iyulgacha "Kibermadaniyatni yuksaltirish oyligi" (Cyber-month - Ferghana) o'tkazilishi belgilandi.

Ushbu oylikni o'tkazishdan asosiy maqsad fuqarolarni kiberjinoyatlarni qurbaniga aylanishlarini oldini olish, ularni kiberjinoyatga qarshi kibergigiyenani yuksaltirish, buning uchun bir qator sohalarda keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Seminarda ma'ruzachilar elektron to'lov tizimidagi vositalardan foydalanish, shaxsga doir ma'lumotlarni sir saqlanishi, bank plastik kartasi va uning parollarini himoyalanishi, telefonga kelgan xabar kodlarini begona shaxslarga aytmaslik va yana qator masalalar bo'yicha joylarda, mahallarda targ'ibot-tashviqot tadbirlari keng doirada o'tkazish, har bir xonadonga kirib borilib, ularning kibermadaniyatini yuksaltirish zarurligi ta'kidlab o'tildi.

2024-07-08 13:55:39